

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA TA'LIM JARAYONLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SIFATLI TA'LIM BERISH

Akbarova Yorqinoy Egamberdiyevna

Farg'ona viloyati Quva tumani DMTT-18 direktori

Annatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalar orqali samarali ta'lim berish haqidagi tushunchalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены концепции эффективного обучения посредством цифровых технологий в образовательном процессе.

Abstract: This article presents the concepts of effective teaching through digital technologies in educational processes.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, samaradorlik, ta'lim jarayoni, pedagoglar, bolalar, sifatli ta'lim.

Ключевые слова: цифровые технологии, эффективность, образовательный процесс, педагоги, дети, качественное образование.

Key words: digital technologies, efficiency, educational process, pedagogues, children, quality education.

Zamonaviy dunyoda maktabgacha ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2015-yilda YUNESKO xalqaro Kongressida "Maktabgacha ta'lim bolaning umumiy rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanib, kundalik hayotga, dunyoga moslashish uchun asos yaratadi", degan fikr bildirildi. Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha ko'zda tutilgan vazifalardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini ko'paytirish va ularda bolalarning sog'lom va jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni ko'paytirish va ularga ta'lim beradigan pedagoglarning malakasini uzluksiz rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim bo'g'inida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu o'zgarishlar maktabgacha ta'limning tashkiliy va mazmunli jihatlariga ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018-yil 9-yanvar kuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojiga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarning jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi" deb ta'kidlab o'tdi. Yana shuni ta'kidlash joizki "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqishda ta'limning hamma sohasida

jahon talablariga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish shartligiga alohida e'tibor qaratildi.

MTTlarda raqamli axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, bolalarni mashg'ulotlarga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- berilayotgan materialni chuqur va mukammal o'zlashtirish imkoniyati va uni ta'lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo'lganda amaliyotga qo'llash darajasi ortadi;
- axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animatsiya ,...) berilishi ta'lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg'otadi;
- kompyuter "nazoratchi" funksiyasini bajarib ta'lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergan javoblarini, ya'ni o'zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko'rsatadi;
- dars jarayonida ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo'lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi;
- o'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilishini modifikatsiyalash, ya'ni pedagog tomonidan bajarilayotgan ko'pgina tashkiliy ishlarni kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilib vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;
- Ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanib, mustaqil ta'lim olish imkoniyati sohalari kengayadi va o'qituvchi bilan erkin hamda teng muloqotga kirisha oladigan hamkorga aylanadi.

Umumiy maqsadli amaliy dasturiy ta'minot — soha mutaxassisi bo'lgan foydalanuvchi axborot texnologiyasini qo'llaganda uning ishiga yordam beruvchi ko'plab dasturlarni o'z ichiga oladi. Bular:

- kompyuterlarda ma'lumotlar bazasini tashkil etish va saqlashni ta'minlovchi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- matnli hujjatlarni avtomatik ravishda loyihalashtiruvchi, ularni tegishli holatda rasmiylashtiruvchi va chop etuvchi matn muharrirlari;
- grafik muharrirlar;
- hisoblashlar uchun qulay muhitni ta'minlovchi elektron jadvallar;
- taqdimot qilish vositalari, ya'ni tasvirlar hosil qilish, ularni ekranda namoyish etish, slaydlar, animatsiya, filmlar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus dasturlar.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimida xususan maktabgacha ta'lim bo'g'inida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu o'zgarishlar maktabgacha ta'limning tashkiliy va mazmunli jihatlariga ta'sir ko'rsatdi. "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqishda ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish shartligiga alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ilg'or tajribalardan samarali foydalanish hamda o'quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bunday sharoitlarda maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda pedagog kadrlarning roli birinchi o'ringa chiqadi, shu bilan birga pedagog kadrlar tayyorlash sifati va oliy ma'lumotli pedagoglar ulushining ortishiga qo'yiladigan talablar ortib boradi. Tarbiyachilarning bilim olish ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, Mustaqil ta'lim olishning samarali platformalardan foydalanish eng mashhur loyihalardan biri hisoblanadi.

Tarbiyachilar ushbu turdagi o'yin faoliyatining jozibali tomoni sifatida mantiq, e'tibor, aqlning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Tarbiyachilarning ta'lim motivatsiyasini oshirish va guruh tadqiqot faoliyatini tashkil etish hamda ularni aniqlash:

Tarbiyachilarning o'zaro aloqasi bo'lgan qismi yoki barcha ma'lumotlar loyiha janridan kelib chiqqan holda, ehtiyojga yo'naltirilgan faoliyatli turlarini o'z ichiga oladi. Biz allaqachon raqamli dunyoda turibmiz va raqamlashtirish inson hayotining barcha jabhalariga katta ta'sir ko'rsatdi va ta'lim ham chetda qolmadi. O'qishga ko'maklashish uchun raqamli, elektron texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan elektron ta'lim o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, chunki hozirgi kunlarda masofa sifatli va jahon darajasida ta'lim olish uchun to'siq emas.

Ma'lumotlarga ko'ra, bola miyasining 90 foizi 5 yoshga qadar rivojlanadi. Bu davrda ota-onalar va pedagoglar bolaga butun umri davomida ta'lim olishi uchun mustahkam poydevor qo'yishda yordam berishlari mumkin. Buning uchun tarbiyalovchi va rag'batlantiruvchi muhit yaratishlari, bola bu orqali o'rganishi,

rivojlanishi va yutuqlarga erishisha olishi zarur. Pedagoglar – bola hayotiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan shaxslardan biri. Ular malaka oshirish kurslarida o‘qib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari va uni o‘z ish faoliyatlarida qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. Direktorlar zamonaviy va ilg‘or ta’lim amaliyotlaridan foydalanganda bolalar jismoniy, hissiy va ta’limiy jihatdan o‘shishga erishadi. “Raqamli texnologiyalar” pedagoglarimizning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun katta qulayliklar taqdim etadi”. Yuqorida bayon qilingan dalillar MTTlarda tarbiyalanuvchilarning AKT savodxonligini shakllantirish, ularni turl xildagi AKTlar bilan elementar tarzda muomala qilishga o‘rgatish va maktab ta’limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo‘ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko‘rishni yoqtiradilar.

AKT esa tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o‘yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo‘ladi: Kundalik hayotda qanday qilib tekshirishimiz mumkin, televizor - bu uyda voyaga etmaganlar va shuning uchun umuman jamiyat uchun eng qulay bo‘lgan aloqa vositasidir. Shuning uchun uni bugungi kunda bolalar hayotiga ta'sir qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak. Shuni yodda tutishimiz kerakki, bu bolalarda ham salbiy, ham ijobiy ta'sir qilishi mumkin, ya'ni bu aloqa vositasi voyaga etmaganlarda afzalliklari va kamchiliklari bor. Shu bilan birga, ko'p hollarda ushbu vositadan foydalanish bilan bog'liq kamchiliklarni yoki uning bolalarimizning jismoniy va aqliy rivojlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ta'sirini anglamasligimiz mumkin.

ADABIYOT RO‘YXATI

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
2. D.Sayfurov, Fayzieva M. Ta’limda ilg‘or axborot-kommunikasiya texnologiyalari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017 y.
3. G‘ulomov S., Alimov R. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. -T.: Sharq nashriyoti, 2000.
4. Qodirov B.G‘., Begimkulov U.Sh., Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. Elektron darslik. 2002 y.
5. Xamidov V.S. Talim tizimida keskin burilishga sabab bo‘lgan 4 dastur haqida.
6. Yuldashev U., Boqiev R., Zokirova.F. Informatika va axborot texnologiyalari. Elektron o‘quv qo‘llanma. - T, 2004.